

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti

Direktor



Sagdiyev Hamidulla Qobulovich

texnika fanlari nomzodi

instmech@academy.uz,
(+998 71) 2627132

Bog'lanish

Manzil: 100125, Toshkent sh., Ziyolilar ko'chasi, 13

Direktor: Sagdiyev Hamidulla Qobulovich

Telefon: (+998 71) 2627132

Faks: (+998 71) 2627152

Sayt: instmech.uz

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T. O'rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti faoliyati asosiy ilmiy yo'nalishlarini quyidagidan iborat: Grunt sharoiti, fazoviy omillar, chiziqsizlik xossalari va seysmik ta'sirning ixtiyoriy ko'rinishlarini inobatga olgan xolda, er osti inshootlari, asoslar va poydevorlarning seysmodinamikasi uchun ilmiy asoslar yaratish va rivojlantirish bo'yicha izlanishlar olib borish; dinamik ta'siri ostidagi jismlar va grunt muhitlarlarning konstruktiv va tizim hossalari inobatga olgan xolda deformatsiyalanishi, mustahkamligi va seysmik turg'unligini o'rganish; gidrotexnik inshootlar dinamikasi va zilzilabardoshligi sohasida izlanishlar olib borish; plastina va qobiqlar nazariyasini materiallarining hususiyatlarini va konstruktiv hossalari hisobga olgan xolda rivojlantirish; inshootlarni kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatlarini xamda ularning grunt bilan o'zaro ta'sirini tadqiq qilish bo'yicha modeli va tabiiy eksperimentlar o'tkazish; murakkab yuklanish holatdagi konstruksion materiallarning xususiyatlarini va deformatsiyalanishi bo'yicha izlanishlar olib borish, deformatsiyalanuvchi muhitlar uchun elastik-plastik jarayonlari nazariyasini rivojlantirish; bino va inshootlarning seysmik xavfsizligini ta'minlash va aktiv seysmik himoyasi usullari bo'yicha tavsiyalar, hayot ta'minlovchi tizimlar uchun seysmik riskini kamaytirishi uchun strategiya ishlab chiqish; suyuqlik Mexanikasi, gaz, reologiya, ko'p muhitli oqimlar muammolari va gidroyuritmalarning samarali ishlashini ta'minlovchi eksperimental va nazariy tadqiqotlar olib borish; mashinalar dinamikasi va ularning optimal

loyixalash, tejamkorligini ta'minlash borasida izlanishlar olib borish; mashina va mehanizmlarning yangi avlodini yaratish hamda hisoblash va loyixalash usullarini ishlab chiqish; neft va gaz, tog'-metallurgiya sanoatida zahar moddalarni kamaytirish borasida izlanishlar olib borish.